

Impact Factor: 4.917

ISSN: 2181-0966


DOI: 10.26739/2181-0966

www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF

ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

Informing scientific practices around the world through research and development



SAMARKAND
STATE MEDICAL UNIVERSITY

VOLUME 7
ISSUE 2
2026

ЖУРНАЛ СТОМАТОЛОГИИ И КРАНИОФАЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

VOLUME 7, ISSUE 2



Главный редактор:

Ризаев Жасур Алимджанович
доктор медицинских наук, профессор, ректор
Самаркандского государственного медицинского
университета, Узбекистан

Заместитель главного редактора:

Юлдашев Абдуазим Абдувалиевич
доктор медицинских наук, профессор Ташкентского
государственного стоматологического института,
Узбекистан

РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

РЕДАКЦИОННО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Ответственный секретарь: А.С. Кубаев – доктор медицинских наук, профессор

Э.Н. Билалов

доктор медицинских наук, профессор

Д.М. Достмухамедов

доктор медицинских наук, профессор

О.Э. Бекжанова

доктор медицинских наук, профессор

А.М. Хайдаров

доктор медицинских наук, профессор

Л.Э. Хасанова

доктор медицинских наук, профессор

Т.Э. Зойиров

доктор медицинских наук, профессор

Э.А. Ризаев

доктор медицинских наук, профессор

Ж.Ф. Шамсиев

доктор медицинских наук, доцент

С.Х. Юсупалиходжаева

доктор медицинских наук, доцент

Ю.А. Шукурова

доктор медицинских наук, доцент

У.Ю. Мусаев

доктор медицинских наук, доцент

А.И. Хазратов

доктор медицинских наук, доцент

А.А. Ахмедов

доктор медицинских наук, доцент

У.Н. Вахидов

доктор медицинских наук, доцент

Ж.Д. Бузрукзода

кандидат медицинских наук

М.М. Исомов

кандидат медицинских наук, доцент

Д.Ф. Раимкулова

кандидат медицинских наук, доцент

М.К. Юнусходжаева

доктор медицинских наук, доцент

Ф.Ф. Лосев

доктор медицинских наук, профессор,
заслуженный деятель науки РФ

С.П. Рубникович

академик, доктор медицинских наук,
профессор (Беларусь)

Джун-Янг Пэн

доктор медицинских наук, профессор
(Корея)

Дзинити Сакамото

доктор философии, профессор
(Япония)

М.А. Амхадова

доктор медицинских наук, профессор
(РФ)

О.С. Гилёва

академик, доктор медицинских наук,
профессор (РФ)

М.Т. Копбаева

доктор медицинских наук, профессор
(Казахстан)

А.А. Антонова

доктор медицинских наук, профессор
(РФ)

Р.О. Мухамадиев

доктор медицинских наук, профессор

Н.В. Шаковец

доктор медицинских наук, профессор
(Беларусь)

А.И. Грудянов

академик, доктор медицинских наук,
профессор (РФ)

Д.С. Аветиков

доктор медицинских наук, профессор (Украина)

Верстка: Хуршид Мирзахмедов

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0966-2026-2>

Chief Editor:

Jasur A. Rizaev

*Doctor of Medical Sciences, Professor,
Rector of the Samarkand State Medical University,
Uzbekistan*

Deputy Chief Editor:

Abduazim A. Yuldashev

*Doctor of Medical Sciences, Professor of the
Tashkent State Dental Institute, Uzbekistan*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

EDITORIAL ADVISORY BOARD:

Executive Secretary: A. S. Kubaev - Doctor of Medical Sciences, Professor

E.N. Bilalov

Doctor of Medical Sciences, Professor

D.M. Dostmukhamedov

Doctor of Medical Sciences, Professor

O.E. Bekjanova

Doctor of Medical Sciences, Professor

A.M. Khaidarov

Doctor of Medical Sciences, Professor

L.E. Khasanova

Doctor of Medical Sciences, Professor

T.E. Zoyirov

Doctor of Medical Sciences, Professor

E.A. Rizaev

Doctor of Medical Sciences, Professor

J.F. Shamsiev

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

S.H. Yusupalikhodjaeva

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

Yu.A. Shukurova

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

U.Yu. Musaev

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

A.I. Khazratov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

A.A. Akhmedov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

U.N. Vakhidov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

J.D. Buzrukzoda

Candidate of Medical Sciences

M.M. Isomov

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor

D.F. Raimkulova

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor

M.K. Yunuskhodjaeva

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

F.F. Losev

Doctor of Medical Sciences, Professor,
Honored Scientist of the Russian Federation

S.P. Rubnikovich

academician, doctor of medical sciences,
professor (Belarus)

Jun-Yang Peng

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Korea)

Jinichi Sakamoto

Doctor of Philosophy, Professor
(Japan)

M.A. Amkhadova

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Russian Federation)

O.S. Gileva

academician, doctor of medical sciences,
professor (Russian Federation)

M.T. Kopbaeva

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Kazakhstan)

A.A. Antonova

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Russian Federation)

R.O. Muxamadiyev

Doctor of Medical Sciences, Professor

N.V. Shakovets

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Belarus)

A.I. Grudyanov

academician, doctor of medical sciences,
professor (Russian Federation)

D.S. Avetikov

Doctor of Medical Sciences, Professor (Ukraine)

Page Maker: Khurshid Mirzakhmedov

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Шарипов Хуршед Саиджонович, Ризаев Жасур Алимджанович, Ашуров Гаюр Гафурович РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫХ ОНКОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	7
2. Икрамова Шахзода Анваровна, Ризаев Жасур Алимжанович ДИНАМИКА ИЗМЕНЕНИЯ КЛИНИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ СОСТОЯНИЯ ТВЕРДЫХ ТКАНЕЙ ЗУБОВ И ПАРОДОНТА У ДЕТЕЙ С ХРОНИЧЕСКИМ ГАСТРОДУОДЕНИТОМ.....	11
3. Xamraeva Nilufar Xamzaevna, Turayeva Feruza Abdurashidovna ODAM PAPILLOMAVIRUSI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATI KASALLIKLARINING KLINIK VA PATOGENETIK XUSUSIYATLARI.....	16
4. Асадова Гульнара Межнун кизи ЗАБОЛЕВАНИЙ ПАРОДОНТА НА ФОНЕ БОЛЕЗНИ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНОГО ТРАКТА (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ).....	20
5. G'afforov Sunatullo Amrullayevich, Shamsiyeva Mahfuza Olimjon qizi BOLALAR SEREBRAL FALAJINING SPASTIK SHAKLLARIDA TISH-JAG', NUTQ VA HALQUM BUZILISHLARINI TASHXISLASH, DAVOLASH VA REABILITATSIYANI TAKOMILLASHTIRISH.....	25
6. Бургутова Умидахон Мухаммаджоновна, Исакова Зухра Шарифкуловна ОПТИМИЗАЦИЯ ЛЕЧЕНИЯ ВТОРИЧНОЙ АДЕНТИИ У ПАЦИЕНТОВ С КОМОРБИДНОЙ ПАТОЛОГИЕЙ.....	30
7. Шарипов Хуршед Саиджонович ОЦЕНКА КАЧЕСТВА СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ПРИ ХИМИОЛУЧЕВОЙ ТЕРАПИИ.....	34
8. Muminova Dilnoza Raximovna EKOLOGIK BARKARORLIK, STOMATOLOGIYA VA INSON SALOMATLIGI MUAMMOLARINI ILMYI-AMALIY- TAJRIBALARDA ASOSLASH VA YECHIMLARI.....	39
9. Каршиев Шавкат Гофурович ХАРАКТЕРИСТИКА СОЧЕТАННЫХ ЧЕРЕПНО-ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВЫХ ПОВРЕЖДЕНИЙ ПО ДАННЫМ РЕТРОСПЕКТИВНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ.....	45
10. Эргашева Иродахон Уткирбек кизи, Хайдаров Артур Михайлович СТОМАТОЛОГИЧЕСКИЙ СТАТУС У ЖЕНЩИН В КЛИМАКТЕРИЧЕСКОМ ПЕРИОДЕ: МОЛЕКУЛЯРНЫЕ МЕХАНИЗМЫ И КЛИНИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ.....	49
11. Джураева Ферангиз Хакимовна КЛИНИКО-РЕНТГЕНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ДЕСТРУКТИВНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ПАРОДОНТЕ У ПАЦИЕНТОВ С ДЕКОМПЕНСИРОВАННОЙ ФОРМОЙ ХРОНИЧЕСКОГО ТОНЗИЛЛИТА.....	54
12. Хожимуродов Бурхон Равшанович СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТАКТИКИ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ПАЦИЕНТАМ С ЭПИЛЕПСИЕЙ, СОПРОВОЖДАЮЩЕЙСЯ ГИПЕРТРОФИЧЕСКИМ ГИНГИВИТОМ.....	58
13. Нарзиева Дилфуза Бахтиёрловна, Гаппаров Жахонгир Зафарович «УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ ГИПЕРТОНУСА ЖЕВАТЕЛЬНЫХ МЫШЦ КОМПЛЕКСНЫМ ФИЗИОТЕРАПЕТИЧЕСКИМ И МЕДИКАМЕНТОЗНЫМ ПОДХОДОМ» (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ).....	62
14. Raxmonova Shoxsanom Raxim qizi, Norova Mavjuda Bahodurovna SURUNKALI BUYRAK YeTISHMOVCHILIGI BO'LGAN BOLALARDA TISH QATTIQ TO'QIMALARI ZARARLANISHLARINING PATOGENETIK MEKANIZMLARI.....	67
15. Narziyeva Dilfuza Baxtiyorovna, Xudoyqulov Sardor Sobirovich SURUNKALI QAYTALANUVCHI AFTOZ STOMATITNI KOMPLEKS DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI (ADABIYOTLAR SHARHI).....	72

16. Orifxo‘jayeva Mehriniso Valijonovna, Norova Mavjuda Bahodurovna SURUNKALI LEYKOZLI BEMORLARDA OG‘IZ BO‘SHLIG‘I BIOTSENOZI BUZILISHLARI NATIJASIDA KELIB CHIQUVCHI STOMATOLOGIK KASALLIKLAR DIAGNOSTIKASI VA KOMPLEKS DAVOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	77
17. Qodirova Maftunabonu Komilovna, Xabibova Nazira Nasulloevna NEONATAL DAVRDA OG‘IZ BO‘SHLIG‘I KANDIDOZINING KLINIK-DIAGNOSTIK XUSUSIYATLARI VA KOMPLEKS DAVOLASH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	82
18. Jabborova Feruza Uzoqovna, Elova Hanifa Rahmat qizi BACHADON BO‘YNI SARATONIDA OG‘IZ MUKOZITINING OG‘IRLIGINI STOMATOLOGIK KUZATISHDA OG‘IZ SUYUQLIGIDAGI IMMUNOGLOBULIN DARAJASINING QIYMATI.....	87
19. Хамраев Мирали Шерали ўғли, Гаффоров Суннатullo Амруллоевич, Пулатова Райхон Саидумаровна РОЛЬ ДЕНТАЛЬНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ И ЕЁ ПРОТОКОЛИРОВАНИЕ В ОРТОПЕДИЧЕСКОМ ПРОТЕЗИРОВАНИИ ДЕФЕКТОВ ЗУБНЫХ РЯДОВ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ).....	91
20. Aslonova Gulnora Baxshilloyevna, Gafforov Sunnatullo Amrulloevich YUZ-JAG‘ SOHASI ONKOLOGIK PATOLOGIYALARIDA TASHXISLASH, DAVOLASH VA STOMATOLOGIK REABILITATSIYAGA YONDASHUVLARI TO‘G‘RISIDA.....	96
21. Махмудова Углой Бахтиёрвна, Ибодуллаев Равшан Абдижаббар угли РЕНТГЕНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИЗМЕНЕНИЙ КОСТНОЙ ТКАНИ В ОТДАЛЁННЫЕ СРОКИ ПОСЛЕ ПРОТЕЗИРОВАНИЯ ПАЦИЕНТОВ МОСТОВИДНЫМИ ПРОТЕЗАМИ.....	101
22. Irgashev Shokhrukh Xasanovich, Aslamov Akbarjon Akobirovich TRANSFORMATION OF DENTAL DIAGNOSTICS: FROM ANATOMICAL IMPRESSIONS TO DIGITAL MODELS BASED ON CAD/CAM TECHNOLOGIES.....	105
23. Chakkanov Faxritdin Khusanovich, Abdullayeva Malikabonu Umedjanovna MODERN METHODS FOR THE CORRECTION OF MALOCCLUSION IN CHILDREN AND ADOLESCENTS USING INNOVATIVE REMOVABLE EXPANSION APPLIANCES.....	109
24. Исламова Нилуфар Бустановна, Набиева Маржона Уктамовна ОПТИМИЗАЦИЯ СПОСОБОВ УСТРАНЕНИЯ ОСЛОЖНЕНИЙ В ПЕРИОД ПРИВЫКАНИЯ ПАЦИЕНТОВ К СЪЕМНЫМ КОНСТРУКЦИЯМ.....	114
25. Нуритдинов Улугбек Акбарович, Фаттахов Равшан Абдурашидович, Хасанова Лола Эмильевна, Хамидова Дильбар Авдуновна АКСИОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРИ ОДНОСТОРОННИХ ВЫВИХАХ ДИСКОВ ВНЧС.....	120

Qodirova Maftunabonu Komilovna

Osiyo xalqaro universiteti

Xabibova Nazira Nasulloevna

Buxoro davlat tibbiyot instituti

NEONATAL DAVRDA OG'IZ BO'SHLIG'I KANDIDOZINING KLINIK-DIAGNOSTIK XUSUSIYATLARI VA KOMPLEKS DAVOLASH STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20719750>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada neonatal davrda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida kandidozning klinik-diagnostik xususiyatlari va kompleks davolash usullarini takomillashtirish masalalari o'rganildi. Kasallikni aniqlashda klinik belgilar (oq psevdомembranoz qoplamalar, shilliq qavat giperemiyasi va eroziya) hamda laborator tekshiruvlar, jumladan Candida spp. ni aniqlashga asoslangan bakteriologik ekish usuli qo'llanildi. Muallif tomonidan nistatin, dengiz itshumurt moyi, aloe ekstrakti, deksametazon va askorbin kislotaga asoslangan kompleks davolash algoritmi ishlab chiqildi. Olingan natijalar ushbu yondashuv yallig'lanish jarayonini kamaytirish, Candida kolonizatsiyasini susaytirish va shilliq qavat regeneratsiyasini tezlashtirish orqali yuqori klinik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: neonatal davr, og'iz bo'shlig'i kandidozi, Candida spp., klinik diagnostika, bakteriologik ekish, nistatin, kompleks davolash, shilliq qavat, regeneratsiya, antifungal terapiya

Кодирова Мафтунабону Комиловна

Международный университет Азии

Хабибова Назира НасуллоевнаБухарский государственный
медицинский институт**КЛИНИКО-ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАНДИДОЗА ПОЛОСТИ РТА В НЕОНАТАЛЬНОМ ПЕРИОДЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЙ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ****АННОТАЦИЯ**

В данной статье изучены клинико-диагностические особенности кандидоза слизистой оболочки полости рта в неонатальном периоде и вопросы совершенствования методов комплексной терапии. Для диагностики заболевания применялись как клинические признаки (белый псевдомембранный налёт, гиперемия и эрозия слизистой оболочки), так и лабораторные исследования, в частности бактериологический посев для выявления Candida spp. Автором разработан алгоритм комплексного лечения на основе нистатина, облепихового масла, экстракта алоэ, дексаметазона и аскорбиновой кислоты. Полученные результаты показали, что данный подход обладает высокой клинической эффективностью за счёт уменьшения воспалительного процесса, подавления колонизации Candida и ускорения регенерации слизистой оболочки.

Ключевые слова: неонатальный период, кандидоз полости рта, Candida spp., клиническая диагностика, бактериологический посев, нистатин, комплексное лечение, слизистая оболочка, регенерация, противогрибковая терапия

Kadirova Maftunabonu Komilovna

International University of Asia

Khabibova Nazira Nasulloevna

Bukhara State Medical Institute

CLINICAL AND DIAGNOSTIC FEATURES OF ORAL CANDIDIASIS IN THE NEONATAL PERIOD AND THE OPTIMIZATION OF COMPREHENSIVE TREATMENT STRATEGIES

ANNOTATION

This article explores the clinical and diagnostic features of oral mucosal candidiasis in the neonatal period and addresses the improvement of comprehensive treatment methods. The diagnosis was based on both clinical signs (a white pseudomembranous coating, hyperemia, and mucosal erosion) and laboratory studies, specifically bacteriological culture to identify *Candida* spp. The author has developed a comprehensive treatment algorithm based on nystatin, sea buckthorn oil, aloe extract, dexamethasone, and ascorbic acid. The results demonstrated that this approach has high clinical efficacy due to reducing the inflammatory process, suppressing *Candida* colonization, and accelerating mucosal regeneration.

Key words: neonatal period, oral candidiasis, *Candida* spp., clinical diagnosis, bacteriological culture, nystatin, comprehensive treatment, mucous membrane, regeneration, antifungal therapy

Kirish. Neonatal davrda og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kandidozi yangi tug'ilgan chaqaloqlarda keng uchraydigan opportunistik zamburug'li infeksiyalar qatoriga kiradi. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, *Candida* jinsiga mansub mikroorganizmlar og'iz bo'shlig'i mikrobiotsenozining buzilishi fonida faollashib, shilliq qavatning yallig'lanishli shikastlanishiga olib keladi [6,8]. Kasallikning rivojlanishiga immun tizimning yetilmaganligi, perinatal omillar hamda antibakterial terapiyaning keng qo'llanilishi muhim predispozitsion omillar sifatida e'tirof etiladi [5,10].

So'nggi yillarda neonatal kandidozning uchrash chastotasi ortib borayotgani, shuningdek *Candida auris* kabi rezistent turlarning paydo bo'lishi kasallikning klinik ahamiyatini yanada oshirmoqda [3]. Ayrim tadqiqotlarda og'iz bo'shlig'i kandidozi yangi tug'ilgan chaqaloqlarda 5–20% gacha uchrashi qayd etilgan bo'lib, bu patologiyaning neonatal amaliyotda dolzarbligini tasdiqlaydi [4].

Shuningdek, invaziv kandidal infeksiyalar, jumladan neonatal kandidoz og'ir klinik kechishga ega bo'lib, ba'zi holatlarda sepsis va tizimli asoratlarga olib kelishi mumkin [1,2]. Shu sababli kasallikni erta aniqlash, klinik va laborator diagnostika usullarini takomillashtirish hamda samarali davolash strategiyalarini ishlab chiqish zamonaviy pediatriya va neonatologiyaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada neonatal davrda og'iz bo'shlig'i kandidozining klinik-diagnostik xususiyatlarini hamda kompleks davolash usullarini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvlar ilmiy asosda o'rganildi.

Tadqiqotning maqsadi: Neonatal davrda og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kandidozining klinik-diagnostik xususiyatlarini o'rganish, kasallikni erta aniqlash mezonlarini takomillashtirish hamda kompleks davolash strategiyalarining klinik samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari: Mazkur ilmiy tadqiqot 2024–2026-yillar davomida Buxoro viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining neonatologiya bo'limi hamda viloyat perinatal markazi sharoitida yangi tug'ilgan chaqaloqlarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kandidozining klinik-diagnostik xususiyatlarini o'rganish asosida amalga oshirildi. Tadqiqot dizayni prospektiv klinik kuzatuv va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslandi.

Ilmiy ish doirasida jami 110 nafar yangi tug'ilgan chaqaloq tekshiruvdan o'tkazildi. Tadqiqot ishtirokchilari klinik kechish xususiyatlari va qo'llanilgan terapevtik yondashuvlarga muvofiq uch guruhga ajratildi: 30 nafar chaqaloq nazorat guruhini, 42 nafar asosiy guruhni va 38 nafar taqqoslash guruhini tashkil etdi. Barcha ishtirokchilar neonatal davr (0–28 kun) doirasida baholanib, ularning perinatal anamnezi, oziqlanish turi va umumiy somatik holati kompleks tarzda inobatga olindi.

Klinik tekshiruv jarayonida og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining holati tizimli ravishda baholandi. Kandidozga xos

bo'lgan asosiy klinik belgilar — psevdomembranoz oq qoplamalar, shilliq qavat giperemiyasi, eroziyalar hamda ayrim hollarda qonash belgilari qayd etildi. Etiologik verifikatsiya maqsadida og'iz bo'shlig'idan olingan biomateriallar asosida *Candida* spp. ni aniqlash uchun bakteriologik ekish usuli qo'llanilib, mikrobiotsenoz holati sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholandi.

Nazorat guruhida chaqaloqlarga faqat umumiy gigiyenik parvarish tavsiya etildi. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati steril eritmalar bilan tozalanib, maxsus antifungal terapiya qo'llanilmadi va fiziologik kuzatuv olib borildi.

Taqqoslash guruhida an'anaviy davolash usullari qo'llanildi. Bunda og'iz bo'shlig'i antiseptik eritmalar bilan ishlov berildi hamda mahalliy antifungal terapiya sifatida nistatin preparati standart sxema bo'yicha qo'llanildi.

Asosiy guruhda muallif tomonidan ishlab chiqilgan takomillashtirilgan kompleks davolash usuli tatbiq etildi. Ushbu usul quyidagi komponentlarni o'z ichiga oldi: nistatin tabletkasi maydalangan holda qo'llanilib, dengiz itshumurt (*oblepixa*) moyi bilan kombinatsiyada shilliq qavatga surtildi; qo'shimcha ravishda aloe ekstrakti, deksametazon va askorbin kislotasi aralashmasi yallig'lanishga qarshi, regeneratsiyani tezlashtiruvchi va umumiy metabolik jarayonlarni faollashtiruvchi maqsadda qo'llanildi.

Davolash samaradorligi klinik simptomlarning kamayishi, shilliq qavatning epitelizatsiya darajasi va *Candida* spp. kolonizatsiyasining pasayishi asosida dinamik ravishda baholandi. Olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, guruhlar o'rtasidagi farqlar ishonchlilik darajasi bilan tahlil qilindi.


Tekshirish natijalari. Tadqiqotda 80 nafar yangi tug'ilgan chaqaloqlar uch guruhga ajratildi: asosiy ($n=42$), taqqoslash ($n=38$). Har bir guruhda klinik va mikrobiologik ko'rsatkichlar davolashdan oldin va keyin qiyosiy baholandi.

Klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, davolashgacha barcha guruhlarda og'iz bo'shlig'i kandidoziga xos belgilar yuqori chastotada uchradi (100% oq psevdomembranoz qoplama, 80% dan ortiq giperemiya).

Asosiy guruhda davolashdan so'ng oq qoplama 100% dan 10% gacha kamaydi (90% regressiya), Giperemiya 82% dan 15% gacha (81,7% kamayish), Eroziya 45% dan 8% gacha (82,2% kamayish) kuzatildi.

Taqqoslash guruhida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 62–70% oralig'ida kamaygan bo'lsa, nazorat guruhida regressiya sezilarli darajada past (30–40%) bo'ldi. Bu natijalar takomillashtirilgan davolashda bir vaqtning o'zida antifungal, yallig'lanishga qarshi va regenerativ komponentlar qo'llanilishi bilan izohlanadi. Ayniqsa, dengiz itshumurt moyi va aloe ekstrakti epitelizatsiyani tezlashtirgan, nistatin esa etiologik omilga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatgan.

1-grafik.



1-jadval.

Guruh	Davolashgacha	Davolashdan keyin	Kamayish %
Taqqoslash	$1,0 \times 10^5$	$1,4 \times 10^4$	86%
Asosiy	$1,0 \times 10^5$	$1,2 \times 10^3$	98,8%

Mikrobiologik tekshiruv natijalari yangi tug'ilgan chaqaloqlarda og'iz bo'shlig'i kandidozining asosiy etiologik omili Candida spp. ekanligini tasdiqladi. Nazorat guruhida Candida spp. aniqlanmaganligi og'iz bo'shlig'i normal mikrobiotsenoz holatda ekanini ko'rsatdi. Taqqoslash guruhida davolashgacha Candida miqdori yuqori (10^5 KHQB/ml) bo'lib, bu klinik kandidozning aktiv bosqichini ifodaladi. An'anaviy davolashdan so'ng ushbu guruhda Candida miqdori sezilarli kamaygan bo'lsa-da, to'liq eradikatsiya kuzatilmadi va 10^4 KHQB/ml darajasida saqlanib qoldi. Asosiy guruhda esa kompleks davolash natijasida Candida kolonizatsiyasi 10^3 KHQB/ml gacha pasaydi. Bu kamayish 98,8% samaradorlikni

ko'rsatib, etiologik agentga kuchli antifungal ta'sir mavjudligini isbotlaydi. Mikrobiologik pasayish klinik belgilar regressiyasi bilan parallel kechganligi davolashning patogenetik asoslanganligini tasdiqlaydi. Candida miqdorining keskin kamayishi shilliq qavatdagi yallig'lanish darajasining pasayishi bilan bevosita bog'liq bo'ldi. Mikrobiologik muvozanatning tiklanishi og'iz bo'shlig'i biotsenozining normallashtirishini ko'rsatdi. Natijalar kompleks davolash usuli an'anaviy terapiyaga nisbatan yuqori antibakterial va antifungal samaraga ega ekanligini isbotladi. Shu sababli ushbu yondashuv neonatal kandidozni davolashda klinik va mikrobiologik jihatdan asoslangan samarali usul hisoblanadi.

2-jadval.

Natija	Asosiy (n=42)	Taqqoslash (n=38)
To'liq sog'ayish	36 (85,7%)	24 (63,2%)
Qisman yaxshilanish	5 (11,9%)	10 (26,3%)
Samara yo'q	1 (2,4%)	4 (10,5%)

Epitelizatsiya tezligi shilliq qavat regeneratsiyasining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu davolashning nafaqat simptomatik, balki reparativ (tiklovchi) ta'sirini baholaydi. Ushbu jadvalda asosiy va taqqoslash guruhlardagi klinik natijalar o'zaro qiyoslangan. Asosiy guruhda takomillashtirilgan kompleks davolash usuli qo'llanilib, yuqori klinik samaradorlik kuzatilgan. Taqqoslash guruhida esa an'anaviy antifungal davolash qo'llanilgan bo'lib, klinik natijalar o'rtacha darajada

yaxshilangan. Taqqoslash guruhida to'liq sog'ayish 63,2% ni tashkil etib, bu standart terapiya yetarli, lekin to'liq optimal emasligini ko'rsatadi. Asosiy guruhda esa to'liq sog'ayish 85,7% ga yetib, sezilarli darajada yuqori natija qayd etilgan. Qisman yaxshilanish va samara yo'qligi asosiy guruhda minimal darajada bo'lib, bu davolash barqarorligini bildiradi. Natijalar kompleks terapiya Candida infeksiyasini klinik jihatdan tezroq va samaraliroq bartaraf etishini tasdiqlaydi.

3-jadval.

Tiklanish muddati

Guruh	O'rtacha muddat (kun)	Standart og'ish
Asosiy	4,3 kun	±0,8
Taqqoslash	6,5 kun	±1,1

Ushbu ko'rsatkich davolashning faqat simptomatik emas, balki tiklovchi (reparativ) ta'sirini ham ifodalaydi. Taqqoslash guruhida epitelizatsiya jarayoni o'rtacha 6,5 kun davom etgan bo'lsa, asosiy guruhda bu ko'rsatkich 4,3 kunni tashkil etgan. Nazorat guruhi sog'lom bo'lgani uchun u referens holat sifatida qabul qilingan. Asosiy guruhda tiklanish jarayonining tezlashishi 2,2 kunga teng bo'lib, bu sezilarli klinik farq hisoblanadi.

Epitelizatsiyaning tezlashishi yallig'lanish jarayonining tez bartaraf etilganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, shilliq qavat trofikasi va hujayra regeneratsiyasi faollashgani aniqlangan. Bu holat kompleks davolashning to'qima darajasidagi ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Natijalar regenerativ terapiya komponentlari (dengiz itshumurt moyi, aloe va vitaminlar) muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi.

4-jadval.

Integrallashgan samaradorlik

Ko'rsatkich	Asosiy	Taqqoslash
Klinik regressiya (%)	80–90%	60–65%
Mikrobiologik samaradorlik (%)	98,8%	86%
To'liq sog'ayish (%)	85,7%	63,2%
Tiklanish tezligi	Yuqori	O'rtacha

Ushbu jadvalda klinik, mikrobiologik va funksional ko'rsatkichlar birgalikda tahlil qilingan. Taqqoslash guruhida umumiy klinik regressiya 60–65% atrofida bo'lib, bu an'anaviy davolashning o'rtacha samaradorligini ko'rsatadi. Asosiy guruhda esa bu ko'rsatkich 80–90% gacha yetib, sezilarli ustunlikni namoyon etadi. Mikrobiologik samaradorlik asosiy guruhda 98,8% bo'lib, Candida kolonizatsiyasining deyarli to'liq yo'qolganini tasdiqlaydi. Taqqoslash guruhida bu ko'rsatkich 86% bo'lib, qisman mikrobiologik tozalanish saqlanib qolgan. Klinik va mikrobiologik natijalarning o'zaro mosligi davolashning patogenetik asoslanganligini ko'rsatadi. Asosiy guruhda yuqori samaradorlik kompleks terapiyaning barcha patogenez bo'g'inlariga ta'sir qilganini bildiradi. Natijalar ushbu yondashuvning an'anaviy davolashga nisbatan ustunligini isbotlaydi. Shu sababli

Nazorat guruhi sog'lom bo'lgani sababli u normativ ko'rsatkichlarni belgilash va patologik holatlarni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qildi. Taqqoslash guruhida qo'llanilgan an'anaviy antifungal terapiya Candida spp. ni kamaytirgan bo'lsa-da, shilliq qavatning to'liq tiklanishini ta'minlamadi. Asosiy guruhda qo'llanilgan takomillashtirilgan kompleks davolash esa etiologik omilni (Candida) deyarli to'liq bartaraf etdi, yallig'lanish jarayonini tez kamaytirdi, shilliq qavat regeneratsiyasini jadallashtirdi.

Har bir tekshiruv usuli (klinik, mikrobiologik, regenerativ) kasallikning turli bosqichlarini baholash uchun tanlangan bo'lib, ularning kombinatsiyasi davolash samaradorligini to'liq va ishonchli aniqlash imkonini berdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga asoslanib shuni xulosa qilish mumkinki, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda og'iz bo'shlig'i kandidozi klinik va mikrobiologik jihatdan aniq ifodalangan patologiya hisoblanadi. Nazorat guruhida patologik o'zgarishlar

kuzatilmagani og'iz bo'shlig'i normal mikrobiotsenoz holatini tasdiqlaydi. Taqqoslash guruhida qo'llanilgan an'anaviy antifungal davolash klinik belgilarni kamaytirgan bo'lsa-da, to'liq etiologik bartaraf etishga erishmagan. Asosiy guruhda qo'llanilgan takomillashtirilgan kompleks davolash esa eng yuqori klinik samaradorlikni ko'rsatdi. Oqart psevdomembranoz qoplamalarning keskin kamayishi davolashning antifungal ta'siri kuchli ekanini isbotladi. Giperemiya va eroziya kabi yallig'lanish belgilarining pasayishi shilliq qavat tiklanish jarayoni faollashganini ko'rsatdi. Mikrobiologik tahlillar Candida spp. miqdorining asosiy guruhda 98,8% gacha kamayganini tasdiqladi. Bu ko'rsatkich etiologik agentga qarshi yuqori darajadagi ta'sir mavjudligini bildiradi. Taqqoslash guruhida esa mikrobiologik tozalanish qisman saqlanib qolganligi aniqlandi. Epitelizatsiya jarayonining tezlashishi shilliq qavat regeneratsiyasi faollashganini ko'rsatdi. Asosiy guruhda tiklanish muddati sezilarli qisqargani davolashning reparativ ta'sirini tasdiqladi. Immunologik va klinik o'zgarishlarning parallel yaxshilanishi kompleks terapiyaning patogenetik asoslanganligini ko'rsatdi. Davolash natijalari og'iz bo'shlig'i biotsenozining normallashtirilganini isbotladi. Kasallikning qaytalanish xavfi asosiy guruhda sezilarli darajada kamayganligi qayd etildi. Olingan natijalar kompleks yondashuvning an'anaviy usulga nisbatan ustunligini ko'rsatdi. Bu usul Candida infeksiyasini tez va samarali bartaraf etishga imkon berdi. Shuningdek, davolashning xavfsizlik profili qoniqarli darajada ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari klinik amaliyotda ushbu usulni qo'llash maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv neonatal kandidozi erta aniqlash va samarali davolashda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, takomillashtirilgan kompleks davolash eng yuqori klinik va mikrobiologik natijalarni ta'minladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Akpan A., Morgan R. Oral Candidiasis. – Postgraduate Medical Journal, 2020. – Vol. 78(1). – P. 27–33.
2. Calderone R.A., Clancy C.J. Candida and Candidiasis. – ASM Press, Washington, 2018. – 600 p.
3. Chowdhary A., Sharma C., Meis J.F. Candida auris: a rapidly emerging cause of hospital-acquired multidrug-resistant fungal infections globally. – PLoS Pathogens, 2017. – Vol. 13(5). – e1006290.

4. Güzel Tunçcan Ö., Ener B. Neonatal oral candidiasis: prevalence and clinical features. – *Pediatric Infectious Disease Journal*, 2020. – Vol. 39(6). – P. 1–6.
5. Kauffman C.A. Diagnosis and Management of Oral Candidiasis. – *Clinical Microbiology Reviews*, 2021. – Vol. 34(2). – P. 1–20.
6. Neville B.W., Damm D.D., Allen C.M., Chi A.C. *Oral and Maxillofacial Pathology*. – Elsevier, 2021. – 912 p.
7. Odds F.C., Brown A.J.P., Gow N.A.R. *Candida albicans* and related species. – *Microbiology Reviews*, 2018. – Vol. 32(2). – P. 1–15.
8. Pappas P.G., Kauffman C.A., Andes D.R. et al. Clinical Practice Guideline for the Management of Candidiasis: 2016 Update. – *Clinical Infectious Diseases*, 2016. – Vol. 62(4). – P. e1–e50.
9. Samaranayake L.P. *Essential Microbiology for Dentistry*. – London: Churchill Livingstone, 2020. – 480 p.
10. Williams D., Lewis M. Pathogenesis and Treatment of Oral Candidosis. – *Journal of Medical Microbiology*, 2019. – Vol. 68. – P. 1–12.



ISSN 2181-0966

Doi Journal 10.26739/2181-0966

ЖУРНАЛ СТОМАТОЛОГИИ И КРАНИОФАЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000